

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Sirdaryo viloyati doimiy aholisi soni 2022 yil 1 iyul holatiga 887,1 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 8,5 ming kishiga yoki 1,0 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 380,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,8 %), qishloq aholisi soni 507,1 ming kishini (57,2 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2022 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **8,5 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **10,9 ming nafarni** tashkil etdi.
- FHDYO bo'limlarida **2,7 mingta nikoh** va **0,9 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Sirdaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2022 yil yanvar-iyun oylarida)



## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi (yanvar – iyun holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	2021 yil	2022 yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>868,3</b>	<b>887,1</b>	<b>102,2</b>
Guliston sh.	92,2	96,5	104,6
Shirin sh.	18,9	19,1	101,1
Yangiyer sh.	44,6	46,0	103,0
tumanlar:			
Oqoltin	53,4	54,3	101,7
Boyovut	132,6	134,7	101,6
Guliston	75,0	76,5	102,0
Sayhunobod	79,1	80,6	102,0
Mirzaobod	75,9	77,6	102,1
Sardoba	67,4	68,7	101,7
Sirdaryo	130,9	133,5	102,0
Xovos	97,9	99,6	101,8


\*) dastlabki ma'lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2022-yil 1-iyul holatiga eng ko'p aholi soni Guliston shaharida 96,6 ming kishini (viloyat aholisi sonidan ulishi 10,9% ni) Xovos tumanida 99,6 ming kishini (viloyat aholisi sonidan ulishi 11,2% ni) Boyovut tumanid 134,7 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,2 % ni) va Sirdaryo tumanida 133,5 ming kishini (15,0 %), aksincha eng kam aholi soni Shirin shahrida 19,1 ming kishi (2,2 %) va Yangiyer shahrida 46,0 ming kishini (5,2 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2021 yilning mos davriga nisbatan Guliston shaharda 4,3 % ni, Mirzoobod tumanida 1,7 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Shirin shahrida 1,0 % ni tashkil etdi.

## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2022- yil 1- iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2022- yil 1- iyul holatiga, foizda , dastlabki ma'lumot)




## Demografik holat

### Jinsi bo'yicha doimiy aholi sonining bo'linishi (2022- yil 1– iyul holatiga, ming kishi, dastlabki ma'lumot)

	erkak	ayol
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>445,5</b>	<b>441,6</b>
Guliston sh.	48,4	48,1
Shirin sh.	9,4	9,7
Yangiyer sh.	22,9	23,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	27,3	26,9
Boyovut	68,2	66,5
Guliston	37,8	38,7
Sayxunobod	40,3	40,3
Mirzaobod	40,3	37,3
Sardoba	34,8	33,9
Sirdaryo	66,4	67,1
Xovos	49,7	49,9

### Hududlar kesimida aholi zichligi (2022- yil 1– iyul holatiga, 1 kv kmga to'g'ri keladigan aholi)



## Demografik holat


**Tug‘ilish.** 2022-yilning yanvar-iyun oylarida 10,9 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 24,8 promilleni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 1,2 promillega ko‘paygan (2021-yilning yanvar-iyun oylarida 23,6 promille bo‘lgan).

Tug‘ilish koeffitsiyenti 2021-yilning mos davriga nisbatan Guliston shaharida (21,8 promilledan 67,7 promillega), Shirin shahrida (18,2 promilledan 18,5 promillega), Yangiyer shaharida (23,4 promilledan 32,6 promillega) sezilarli o‘sgan bo‘lib, aksincha sezilarli kamayish Guliston tumanida (24,8 promilledan 16,6 promillega), Mirzaobod tumanida (26,3 promilledan 16,6 promillega) qayd etildi.

### Ma‘lumot uchun

Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pul-satsiyasi, muskullarning beix-tiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.

### Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti (2022-yil yanvar-iyun)



## Demografik holat

### Sirdaryo viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (yanvar-iyun)


	2021-y.	2022-y.	O'sish sur'ati %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>10106</b>	<b>10858</b>	<b>107,4</b>
<b>Guliston sh.</b>	990	3191	322,3
<b>Shirin sh.</b>	171	175	102,3
<b>Yangiyer sh.</b>	515	737	143,1
<b>tumanlar:</b>			
<b>Oqoltin</b>	664	508	76,5
<b>Boyovut</b>	1552	1111	71,6
<b>Guliston</b>	919	627	68,2
<b>Sayxunobod</b>	930	812	87,3
<b>Mirzaobod</b>	986	636	64,5
<b>Sardoba</b>	821	667	81,2
<b>Sirdaryo</b>	1414	1481	104,7
<b>Xovos</b>	1144	913	79,8

## Demografik holat

2022 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,8 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,0 % baxtsiz hodisalar tasodifiy zaharlanish va yuqumli parazit kasalliklardan 1,5%, 19,2%, boshqa kasalliklardan, o'simtalardan 4,1% va 2,9%, ovqat hazm qilish a'zolari, kasalliklaridan, 3,5 % nafas olish a'zolari kasalliklardan vafot etgan.

2022- yilning yanvar - iyun oylarida **136** ta 1 yoshgacha go'daklarda o'lim qayd etilgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



## Demografik holat

**Nikoh.** 2022-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 2,7 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,3 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2021-yilning mos davriga nisbatan Guliston shaharida (207,0 %), Shirin shahar (128,2 %), ga sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha eng yuqori kamayish sur'atlari Boyovut tumani (63,1 %) ga to'g'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2022-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,8 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 2,0 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2021-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Guliston shahriga (165,3 %), Shirin shahrida (246,1 %) va Sayhunobod tumanida (156,4 %) to'g'ri kelmoqda.

### Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2022-yil yanvar-iyun)

	Nikoh tuzganlar	Nikoh koeffitsiyenti
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2744</b>	<b>6,3</b>
Guliston sh.	764	16,2
Shirin sh.	64	6,8
Yangiyer sh.	140	6,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	154	5,7
Boyovut	306	4,6
Guliston	170	4,5
Sayhunobod	195	4,9
Mirzaobod	149	3,9
Sardoba	171	5,0
Sirdaryo	389	5,9
Xovos	242	4,9



## Demografik holat

### Hududlar kesimida ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2022-yil yanvar-iyun)

	Ajrim	Ajrim koeffitsiyenti
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>888</b>	<b>2,0</b>
Guliston sh.	157	3,3
Shirin sh.	32	3,4
Yangiyer sh.	70	3,1
tumanlar:		
Oqoltin t.	57	2,1
Boyovut t.	114	1,7
Guliston t.	70	1,9
Sayhunobod t.	61	1,5
Mirzaobod t.	49	1,3
Sardoba t.	51	1,5
Sirdaryo t.	145	2,2
Xovos t.	82	1,7

### Sirdaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-iyun)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2021-y.	2022-y.	O'sish sur'ati % da	2021-y.	2022-y.	O'sish sur'ati % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>3045</b>	<b>2744</b>	<b>90,1</b>	<b>662</b>	<b>888</b>	<b>134,1</b>
Guliston sh.	369	764	<b>207,0</b>	95	157	<b>165,3</b>
Shirin sh.	50	64	<b>128,0</b>	13	32	<b>246,1</b>
Yangiyer sh.	197	140	<b>71,1</b>	50	70	<b>140,0</b>
tumanlar:						
Oqoltin	207	154	<b>74,4</b>	43	57	<b>132,6</b>
Boyovut	485	306	<b>63,1</b>	97	114	<b>117,5</b>
Guliston	266	170	<b>63,9</b>	60	70	116,6
Sayxunobod	275	195	70,9	39	61	156,4
Mirzaobod	232	149	64,2	49	49	100,0
Sardoba	199	171	85,9	32	51	159,3
Sirdaryo	459	389	84,7	108	145	134,2
Xovos	306	242	79,1	76	82	107,9

## Demografik holat

**Migratsiya.** 2022-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,6 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4,0 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 0,4 ming kishi bo'lib, 2021-yilning mos davrida minus 0,9 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2021 yil yanvar-iyun	2022 yil yanvar-iyun
<b>Ko'chib kelganlar</b>	4,5	3,6
<b>Ko'chib ketganlar</b>	5,4	4,0
<b>Migratsiya sal- dosi</b>	-0,9	-0,4

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Guliston shaharida (minus 0,1 ming kishi), Shirin shaharida (minus 0,06 ming kishi) qayd etildi.

